

## ARAB TILIDA INSHO VA XAT YOZISH USULLARI, QARATILISH KERAK BO‘LGAN NUQTALAR VA ULARNING TURLARI

**Usmonov Murodjon Ibrohim o‘g‘li**

*Yangi asr universiteti. Filologiya va tillarni o‘qitish (ShMT) 401.22. 4-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar : Soliyev Elyorbek Muhammadmuso o‘g‘li*

**Annotatsiya :** *Bugungi kunda arab tili sohasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Yurtimizda yurtboshimiz tashabbuslari bilan arab tiliga ixtisoslashgan maktaablar, oliy o‘quv yurtlari va turli – xildagi unvonlar joriy qilinmoqda. Arab tilidagi kitoblar nashr qilinmoqda lekin arab tilidagi yozish qismiga ixtisoslashgan kitoblar hali – hanuz yetarlicha emas , shu sababli biz bu kitobimizni yozishga kirishdik va bu haqida kichik maqola yozishni ham kerak deb o‘yladik. Bugun siz azizlarga katta kitobimizdan oldin bir kichik maqolamizni taqdim qilamiz !*

**Kalit so‘zlar :** *Bir tomonlama , ikki tomonlama , muammoni hal etish, muqaddima, asosiy qism, xulosa.*

Yigirma birinchi asrimizda yurtimizda “ Arab tili “ ga qaratilgan e‘tibor va islohotlar yurtboshimiz tomonidan qo‘llab – quvvatlanib kelmoqda . Bunga misol tariqasida “ Oliy mirarab “ madrasasi, sefr va at-tanal imtihonlariga qaratilgan islohotlar , “ Imom Buxoriy “ ordenining ta‘sis etilgani katta islohotlardan desak bo‘ladi. Albatta, bu maktablar, madrasa va oliy o‘quv yurtlari qurilar ekan ularni o‘quv manbalari bilan ta‘minlab berish biz o‘quvchilar va filologlarning burchidir . Hammamizga ma‘lumki, Sefr va at – tanal imtihonlarida yozish qismiga qaratilgan manbalarni deyarli uchratmaymiz. Yozish qismi uchun alohida kitob yozishni boshlab yubordik , lekin undan oldin kichik maqolamizni sizlar bilan bo‘shishni niyat qildik .

**! Arab tilida yozish qismi nechiga bo‘linadi va baholash tizimi qanday ?**

2 - qism

### **INSHO :**

STRUKTURA VA TUZILMA : 10 BALL

IMLO VA GRAMMATIKA : 10 BALL

MA‘NO VA MAZMUN : 10 BALL

SO‘ZLAR SONI : 10 BALL

BOG‘LOVCHILAR : 10 BALL

-----

### **XAT :**

STRUKTURA VA TUZILMA : 5 BALL

IMLO VA GRAMMATIKA : 5 BALL

MA‘NO VA MAZMUN : 5 BALL

SO‘ZLAR SONI : 5 BALL

BOG‘LOVCHILAR : 5 BALL

! So‘ngi imtihonlarda qanday mavzudagi savollar tushmoqda ?

### Insho mavzulari

1. 🏆 Olimlarning ijtimoiy aloqalarni kuchaytirish va ilmiy rivojlanishga ta’siri.
2. 🌐 Internet va kundalik hayotning bir birga ijobiy va salbiy ta’siri.
3. 🌍 Ekologik ifloslanish va olimlarning bizning sayyoramizni asrab qolishdagi mas’uliyati.
4. 📖 Arab tili va uning ilm va madaniyatdagi roli.
5. 🕌 Islom va uning qadriyat va ijtimoiy qatlam shakllantirishda o‘rni.

### Xat mavzulari

1. Mahalliy kompaniyaga ish olish uchun so'rov 📧 🏢 👤
2. Mahalliy o'rta ta'lim maktabiga qabul qilinish uchun so'rov 📚 🏠 🎒
3. Misrda Al-Azhar universitetiga qabul qilinish uchun so'rov 🕌 📚 🎓
4. Amerikada xalqaro konferensiyaga qatnashish uchun so'rov 🌐 ✈️ 📧
5. Chet elda o'qish uchun grant so'rovi 📖 🌍 🎓

### Insho va uning tarkibiy qismlari

Insho , bayon yoki hozirda ko‘proq ishlatiladigan so‘z bilan ataydigan bo‘lsak Essay deb ataladi . Uning yozilish tartibi Ingliz tilidagi essaydan deyarli farq qilmaydi va uchta qismdan iborat bo‘ladi : Ular ;

1. Kirish qism
2. Asosiy qism
3. Xulosa

Quyida uning tuzilishi va unda nimalar ifodalanishi berilgan :

#### Muqaddima

1. Kirish so‘zi ( she‘r , maqol va sitata )
2. Umumiy fikrlar
3. Mavzuning maqsadi
4. Mavzuning ahamiyati

#### Asosiy qism

1. Atroflicha izoh va mavzu bayoni
2. Misollar va tahlillar
3. Mavzuni qismlari
4. Turli sharhlar va fikrlar bayoni
5. Dalil va isbotlar

#### Xulosa

Fikrlarni umumlashtirish va xulosa

Agar yozayotgan inshoyingizda shularning barchasi mavjud bo‘lsa tarkibiy jihatdan mukammal bo‘ladi . Biroq bu eng yuqori ballni olishni kafolatlaydi degani emas . Chunki inshoda asosiy e‘tibor uchta asosiy qismning mavjudligiga va ifoda uslubiga , fikrning ravonligiga va so‘zlarning to‘g‘ri ishlatilganiga qaraladi. Asosiy uch qism tarkibiga kiruvchi qismlaridan birortasining yo‘qligi unchalik ham qo‘rqinchli emas .

Inshoning rejasiga kelsak, uni ko‘p hollarda yozib o‘tirishmaydi .

Insho yozishda asosiy e‘tiborni Kirish qismiga va xulosalash qismiga qarating ! Zero, inshoni tekshiruvchida dastlabki siz haqingizdagi fikr kirish qismida paydo bo‘lsa, inshoning umumiy yakuni xulosada ma‘lum bo‘ladi. Shu sababli, kirish va xulosa qismlariga e‘tibor bering .

Inshoda asosiy qaratiladigan narsalar bu strukturalarga, mazmun – mohiyatga, grammatik xatolar , bog‘lovchilar va imlo xatolariga ham e‘tibor berish talab etiladi .

Arab tilida insho necha turga bo‘linadi ?

Javob : 3 turga bo‘linadi ; bir tomonlama , ikki tomonlama , muammoga yechim insholari .

Arab tilida xat necha turga bo‘linadi ?

Javob : 2 turga bo‘linadi ; rasmiy va norasmiy xat .

Quyida ularning strukturalariga namunalarni ko‘rib chiqamiz !

### BIR TOMONLAMA INSHO TUZILMASI

1. Umumiy gap yozing ;
2. Shaxsiy fikringizni yozing qo‘shilish yoki qo‘shilmaslik haqida ;
3. Ikki yoki uch sabab keltiring ( Shu har bir sababni asosiy qismda birma – bir yoritib berasiz ) ;

1. Birinchi sababni yorqinroq ochib beradigan gap ;

2. Sabab keltiring ;

3. Misol keltiring ;

4. Izoh keltiring ;

5. Kichik xulosa ;

1. Ikkinchi sababni yorqinroq ochib beradigan gap ;

2. Sabab keltiring ;

3. Misol keltiring ;

4. Izoh keltiring ;

5. Kichik xulosa ;

1. Uchinchi sababni yorqinroq ochib beradigan gap ;

2. Sabab keltiring ;

3. Misol keltiring ;

4. Izoh keltiring ;

5. Kichik xulosa ;



1. Kirish qismida bildirgan fikringizni yanada yoritib va kenglashtiring;
2. Shaxsiy fikringizni qo‘llab – quvvatlang !

### IKKI TOMONLAMA INSHO TUZILMASI

1. Vaziyat haqida umumiy gap .
2. Birinchi tomon kishilar fikri va ikkinchi tomon kishilarining fikri .
3. Shaxsiy fikringiz .



1. Birinchi tomonni yorqinroq ochib beradigan gap ;
2. Sabab keltiring ;
3. Misol keltiring ;
4. Izoh keltiring ;
5. Kichik xulosa ;

1. Ikkinchi tomonni yorqinroq ochib beradigan gap ;
2. Sabab keltiring ;
3. Misol keltiring ;
4. Izoh keltiring ;
5. Kichik xulosa

1. O‘z fikringizni yorqinroq ochib beradigan gap ;
2. Sabab keltiring ;
3. Misol keltiring ;
4. Izoh keltiring ;
5. Kichik xulosa



1. Ikki tomon haqida umumiy gap yozing ;
2. Siz qaysi tomonni qo‘llab – quvvatlashingiz haqida yozing ;
3. Umumiy xulosa qiling ;

### MUAMMONI HAL ETISH INSHO TUZILMASI

1. Berilgan muammoni hozirgi kunda naqadar jiddiyligi ;
2. Berilayotgan muammoni asosiy ikki sababini keltirish ;
3. Bu yozayapgan inshoyingizda nima qilmoqchisiz : ( masalan , Bu inshoyimizda yuqoridagi muammolarga yechimlar va ularning natijalarini ko‘rib chiqamiz )

1. Muammoning birinchi sababi haqida umumiy gap;
2. Yechim bering;
3. Yechimni natijasini ko‘rsating
4. Kichik xulosa va yechimni bugungi kunda zarurligi haqida gap yozing

1. Muammoning ikkinchi sababi haqida umumiy gap
2. Yechim bering ;
3. Yechimning natijasini ko‘rsating
4. Kichik xulosa va yechimni zarurligi haqida gap yozing ;

1. Umumiy xulosa iboralaridan foydalanib muammo nomi ;
2. Unga bergan yechimingizni kelajakdagi natijalari va foydalari haqida yozing ;
3. O‘z fikringizni qo‘llab-quvvatlovchi gap umumiy yakun uchun ;

Kitobimiz so‘ngida esa insho va xatga foydali iboralar berilgan ?

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak “ insho va xat “ kitobimiz kelajakda sefr va at – tanal imtihoniga topshiruvchilar, arab tilini mukammal o‘rganuvchilar uchun muhtasar kitob bo‘ladi degan umiddamiz ! Bu kitobimiz siz aziz kitobxonlarga tez orada yetib boradi degan umiddamiz !

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati :**

1. Umidjon Abdurayimov “ Insho va xat “ , “ O‘qib tushinish “ , “ Arab tilida so‘zlashuv “ kitoblari ;
2. So‘fiy Fathiy “ Arab tilida keng tarqalgan iboralar “ kitobi ;
3. At – tanal al – arobiy “ Grammatika “ kitobi ;
4. So‘fiy Fathiy “ Manhaj arabiy “ kitobi ;
5. Grand ta‘lim “ arab adabiy tili “ 1 – 8 kitoblar ;
6. Ko‘plan xalqaro maqolalar va internetdagi ishonchli manbalar ;